



**BADIY DETAL – MATNNING STRUKTUR KOMPONENTI SIFATIDA
ARTISTIC DETAIL AS A STRUCTURAL COMPONENT OF THE TEXT**

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ДЕТАЛЬ КАК СТРУКТУРНЫЙ КОМПОНЕНТ
ТЕКСТА**

Komilova Dilnoza Muhammad qizi

Farg‘ona davlat universiteti

*“Umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
d.komilova0893@gmail.com +998998305880*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matnning kategoriyasi hisoblangan badiiy detal unga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e’tirof etish, so‘z birikmalari, gap paradigmalari, matn negizida tahlil qilish borasidagi nazariy masalalar bayon qilingan.*

Annotation. *This article discusses which is considered a category of text, and discusses theoretical issues related to the philological approach to it, its consideration as a small element of the text, recognition, word combinations, sentence paradigms, and text-based analysis.*

Аннотация. В статье рассматривается явление адгезии, которое рассматривается как категория текста, а также обсуждаются теоретические вопросы, связанные с филологическим подходом к нему, его рассмотрением как малого элемента текста, распознаванием, словосочетаниями, парадигмами предложений и анализом на основе текста.

Kalit so‘zlar: *matn, badiiy detal, birlik, xarakter, implitsit, badiiy matn, yashirin ma’no.*

Keywords: *text, artistic detail, unity, character, implicit, artistic text, hidden meaning*

Ключевые слова: *текст, художественная деталь, сцепление, единство, характер, имплицитный, художественный текст, скрытый смысл.*

Tilning asosiy funksiyasi kommunikativlidir. U aloqa-aratlashuv jarayonida so‘zlashuvchilar uchun muloqotning asosini tashkil qiladi. Muloqot jarayonida kommunikatsiya ishtirokchilari nafaqat tildan, balki tilga yondosh bo‘lgan imo-ishora va boshqa ifoda vositalaridan ham foydalanadilar. Muloqot jarayoni murakkabdir, uning murakkabligi shundaki, so‘zlashuvchilar o‘zaro fikr almashish jarayonida har qanday ifoda shaklidan unumli foydalanadilar. Muayyan xabar yoki axborotni yetkazishda bunday rang-barang lisoniy va nolisoniy vositalardan samarali foydalanish usulini tanlash kommunikantlarning mahoratini belgilaydi. Ma’lumki, so‘z verbal ifoda shakli sifatida har





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



qanday xabar yoki axborotni muallif istaganidek, to‘liq va mukammal ifodalash xususiyatiga ega. Noverbal vositalar esa muloqot jarayonida verbal vositalarga hamrohlik qiladi, biroq badiiy uslub matnlarida muallif badiiy tafakkurida shakllangan ayrim g‘oya va fikrlar ifodasi uchun ba’zida so‘zning ma’no mundarijasi torlik qilishi mumkin.

Odatda, badiiy matnda muallif yashiriib aytmoqchi bo‘lgan ayrim fikrlar verbal tasvir ortiga joylashtiriladi, yashirilayotgan fikr esa ifoda mazmuniga singdiriladi. Muallifning kommunikativ maqsadini ifodalashga xizmat qilgan implitsit mazmun umumiy mazmun ichidan anglab olinadi. Fikrni bunday usul bilan tasvirlash obratzli ifodalarda birmuncha farq qiladi. G‘oya yoki fikrni obratzli ifoda shakli orqali tasvirlash uchun badiiy matn muallifi nolisoniy vositalardan foydalanadi. Obrazli ifodaning implitsit mazmuni turli vositalar yordamida aktuallashadi. Implitsit mazmunning aktuallashuvi muallifning umumiy bilim fondi asosida amalga oshiriladi. Badiiy matnda qo’llanuvchi detallar yoki detallashtirilgan faktlar muayyan til tashuvchilari tafakkuridagi urf-odat yoki ramziy ma’no ifodalovchi ayrim narsalarga ishora qiladi. Badiiy matnda qo’llangan obratzli ifoda vositalari mazmunan muallifning borliqda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga yoki o’zi aytayotgan fikrlarga munosabatini ifodalaydi. Muayyan til tashuvchisi bo‘lgan ijodkor voqeа-hodisalar tasvirida istagan narsa va hodisalarni detallashtirishi mumkin. Bunday vositalardan biri detallar yoki detallashtirilgan ifodalar bo‘lib, ular muallifning maqsadiga ko‘ra, nazarda tutilgan g‘oya va fikrni implitsit ifodalashdir. Bunday vositalarni tanlaydi, ularni badiiy matnda verbal tasvirga aylantiradi. Masalan, *Sentyabr oyoqlab, suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqlar tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog‘imi, qoshiqmi shundoqqina ko‘rinib turibdi. Qirg‘oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so‘ramay qo‘ygan palla. Qo‘shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqqliklari, xarxashalari, onalarning yalinib-yolborishlari eshitilib turibdi. Kampir bu tovushlarga bir dam quloq tutib, boshini tebratib, kulib qo‘ydi.*

Saodat yoshligida juda chiroyli qiz bo‘lgandi. Sochlari taqimini o‘paridi. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo’llari sochining uchigacha etmasdi. (S.Ahmad. “Qorako‘z Majnun”).

Yuqorida keltirilgan matnda badiiy detallar qo‘llangan bo‘lib, ularning biri peyzaj tasvirini ifodalaydi. Sentyabr oyining yakuni, ariqda oqayotgan suv tubida bolalar tomonidan tashlangan har bir narsa ko‘zga aniq tashlanib turadi. Yer esa zaxlab, suvga to‘yingan. Ekinlar ham suvga muhtoj emas. Peyzaj tasviriga asoslangan mazkur detallashtirilgan voqealar mazmuni o‘zida implitsitlik xususiyatini namoyon etgan. Muallif yuqoridagi peyzaj tasviri orqali ifodalangan detallar ifodasi bilan inson umri davomida qilgan yaxshi va yomon amallari xuddi *ariq tublaridan bola-baqlar tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog‘imi, qoshiqmi shundoqqina ko‘rinib turganidek idrok qilinishiga ishora qiladi*. Fikrning mantiqiy davomida esa bola katta bo‘lib, ma’naviy-ma’rifiy ozuqaga to‘yinganidan so‘ng unga boshqa narsa ortiqchalik qiladi, degan ishorani Bo‘rixonga nisbatan qo‘llaydi. Uni obratzli ifoda bilan yer esa zaxlab, suvga to‘yingan. Ekinlar ham suvga muhtoj emas tarzida tasvirlaydi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Badiiy detalga asoslangan portret tasviri ham yuqoridagi misolda o‘z aksini topgan. Saodat aya yoshligida ham chiroyli bo‘lganligi, ismi jismiga monandligi, qizlarga xos go‘zallik ramzi hisoblangan sochning uzunligi yoki taqimigacha etishi haqidagi portret tasviri batafsil tahlil qilingan. Bu bilan muallif o‘zbek ayolining go‘zalligini nafaqat uning jismi bilan, balki tafakkuri, Ollohga, oilasiga va farzandlariga oshiqligini har bir detallashtirilgan voqealari bilan izohlaydi:

Saodat aya bomdod namozini o‘kib, joynamoz poyida uzoq o‘tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o‘tgan eri usta Turobga atab Qur‘on tilovat qildi. O‘ris shaharlarida daydib qolib ketgan o‘g‘li Bo‘rixonga xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo‘layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaganining yo‘lini och, deb Allohga iltijo qildi. Kampir har sahar ichki bir ezginlik bilan shu gaplarni takrorlardi. U qo‘l cho‘zib, joynamozning bir burchini qayirib o‘rnidan turdi.

Mazkur matnda nolisoniy vosita sifatida joynamoz detali qo‘llangan bo‘lib, verbal tasvirga asoslangan bu detal Saodat aya shaxsiga xos bo‘lgan e’tiqod hamda Ollohga oshiqlikning belgisi funksiyasini bajaradi. Demak, detal va detallashtirilgan komponentli matnlar badiiy matn umumiyligi mazmunining tarkibiy qismi bo‘lib, bunday tipdagagi matnlar muallif badiiy tafakkuri va qahramon shaxsiga xos xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Yuqoridagilar asosida shuni aytish mumkinki, badiiy matn personaj va qahramonlariga tegishli bo‘lgan har bir narsa yoki buyum muallifning kommunikativ niyatini ifodalashga qaratilgan bo‘lib, u asar g‘oyasi yukini o‘z yelkasiga oladi. Kommunikantlarga tegishli bo‘lgan har bir buyum va narsalar verbal tasvirga aylanishi bilan “tilga kiradi”. Nolisoniy vosita bu kommunikatsiya ishtirokchilariga tegishli bo‘lgan u yoki bu konkret buyum bo‘lib, muallif o‘z maqsadlarini ta’sirliroq ifodalash maqsadida ularni detallashtiradi. Detallashtirish degani personaj yoki qahramonga tegishli har bir buyum muallifdan alohida tasvirni talab qiladi. Maqsadli tasvir esa detallashtirilgan narsa yoki buyum sifatida detal komponentli matnlar mazmunini propozitsiyaga hamohang bo‘lgan boshqa ifoda shakli sifatida aktuallashtiradi. Matn tarkibidagi propozitiv struktura verbal ifodalar bilan qanchalik aniq ifodalangan bo‘lsa, shu mazmunning detal bilan qayta namoyon bo‘lishi voqeanning obrazli tasvirini yuzaga keltiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Galperin I.R. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: КомКнига, 2006. – С.77,78,79.
2. Словарь иностранных слов. – М.: Русский язык, 1988. – С. 17.
3. Мурай О.В. Феномен адгезии в лингвистике // мир науки, культуры, образования. – 2022. – № 2. – С. 412.
4. Мурай О.В. Феномен адгезии в лингвистике // мир науки, культуры, образования. – 2022. – № 2. – С. 412.

